

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

2 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
2-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович, Акбарова Малика Ильхомовна <i>Стратегические направления повышения занятости населения в Респуб- лике Узбекистан: анализ современного состояния и прогнозирование на период до 2030 года.....</i>	4
Saidjabbor Shoiri Saidg'affor q'izi <i>Гендер тенглиги ва минтақаларнинг барқарор ривожланишини таъминлашнинг хорижий амалиёти.....</i>	17
Файзиева Дилафруз Шухратовна <i>Демографик ўсиш ва иқтисодий ривожланишнинг ўзаро алоқадорлиги.....</i>	34
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li <i>O'zbekiston aholi soniga tashqi mehnat migratsiyasining ta'sirini baholash.....</i>	46
Xudayberdiyev Islamjan Zakirovich <i>Aholining kapital bozorda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini baholash.....</i>	55
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li <i>Hududlarda yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayondan foydalangan holda zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	63
Yunusova Ugiloy Bolqiboyevna <i>Problems and solutions in organizing public events in Uzbekistan.....</i>	74
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Moliyaviy salohiyatni baholash metodologiyasini shakllanishida makroiqtisodiy indikatorlarning ahamiyatliligi.....</i>	88
Soatov Farhod Komiljon o'g'li <i>Raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida boshqaruv hisobotlarini shakllantirish</i>	103
Жулиева Гулноз Юлдашевна, Джулибеков Нурмат Каршибекович <i>«Зелёная» экономика Республики Узбекистан, перспективы развития.....</i>	113
Умурзаков Баходир Хамидович <i>Меҳнат ресурсларининг сифат ва малакавий таркибини шакллантиришда инновацион тенденциялардан фойдаланишнинг хориж тажрибаси таҳлили.....</i>	120
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи <i>Банклар ресурс базасини мустаҳкамлашда капиталнинг ўрни.....</i>	129
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri: konseptual tahlil</i>	135
Jurayev Elyorbek Sobirjon o'g'li <i>Kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari.....</i>	
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li <i>Xorijiy investitsiyalar va sanoat korxonalarini modernizatsiyalash: muammo va imkoniyatlar</i>	160
Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o'g'li <i>Mehnat ko'rsatkichlari tahlilining xorij tajribasi va undan respublikamizda qo'llash jihatlari.....</i>	140

БАНКЛАР РЕСУРС БАЗАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА КАПИТАЛНИНГ ЎРНИ

Мирзаева Матлуба Гайбулла қизи

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

“Банк ҳисоби ва аудити” кафедраси

катта ўқитувчиси PhD

Анотация. Мақолада тижорат банклари, хусусан, хусусий банкларнинг ресурс базасини мустаҳкамлашда капиталнинг ўрни таҳлил қилинган. Банк капитали молиявий барқарорлик ва рақобатбардошликни таъминловчи асосий омил сифатида кўриб чиқилган ҳамда унинг тўғри бошқарилиши стратегик аҳамият касб этиши таъкидланган. Халқаро стандартлар (Базел III ва Базел IV) асосида капиталнинг ҳимоя, барқарорлик ва ликвидликни таъминлашдаги роли очиб берилган. Шунингдек, Ўзбекистонда тижорат банклари капиталига қўйилган минимал талаблар, капитал монандлилик даражаси ва тижорат банклари жамланма баланси бўйича статистик таҳлиллار келтирилган. Муаллиф хусусий банклар капиталлашув даражасини оширишнинг асосий йўналишлари юзасидан амалий таклифлар илгари сурган.

Калит сўзлар. Банк капитали, ресурс базаси, тижорат банклари, капиталлашув даражаси, молиявий барқарорлик, ликвидлик, рақобатбардошлик, хусусий банклар, Базел стандартлари.

РОЛЬ КАПИТАЛА В УКРЕПЛЕНИИ РЕСУРСНОЙ БАЗЫ БАНКОВ

Мирзаева Матлуба Гайбулла кизи,

старший преподаватель кафедры

«Банковский учет и аудит»

Ташкентского государственного экономического

университета, PhD

Аннотация. В статье рассматривается роль капитала в укреплении ресурсной базы коммерческих банков, в частности частных банков. Капитал анализируется как ключевой фактор обеспечения финансовой устойчивости и конкурентоспособности, при этом подчеркивается стратегическая важность его эффективного управления. На основе международных стандартов (Базель III и Базель IV) раскрыта защитная, стабилизирующая и ликвидная функции капитала. Приведены статистические данные о минимальных требованиях к капиталу коммерческих банков Узбекистана, уровне достаточности капитала и

консолидированном балансе банков. Автором предложены практические рекомендации по повышению уровня капитализации частных банков.

Ключевые слова: банковский капитал, ресурсная база, коммерческие банки, уровень капитализации, финансовая устойчивость, ликвидность, конкурентоспособность, частные банки, стандарты Базель.

THE ROLE OF CAPITAL IN STRENGTHENING THE RESOURCE BASE OF BANKS.

Mirzayeva Matluba Gaibulla kizi,

Senior lecturer of the Department

«Banking Accounting and Auditing» of

Tashkent State University of Economics, PhD

Abstract. The article analyzes the role of capital in strengthening the resource base of commercial banks, particularly private banks. Bank capital is considered as a key factor in ensuring financial stability and competitiveness, with emphasis on the strategic importance of its effective management. Based on international standards (Basel III and Basel IV), the protective, stabilizing, and liquidity functions of capital are examined. Statistical data on minimum capital requirements for commercial banks in Uzbekistan, capital adequacy ratios, and consolidated balance sheets are presented. The author proposes practical recommendations aimed at improving the capitalization level of private banks.

Keywords: bank capital, resource base, commercial banks, capitalization level, financial stability, liquidity, competitiveness, private banks, Basel standards.

Кириш.

Бугунги кунда молиявий бозорларда рақобат кучайиб бораётган бир пайтда тижорат банклари, айниқса хусусий банкларнинг барқарор фаолиятини таъминлаш муҳим аҳамият касб этмоқда. Хусусий банклар миллий иқтисодиётда инвестиция жараёнларини қўллаб-қувватлаш, аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектларнинг бўш маблағларини жалб этиш ҳамда уларни самарали йўналтириш орқали иқтисодий ўсишни рағбатлантирувчи асосий институтлардан бири ҳисобланади.

Банк ресурс базасини мустаҳкамлаш жараёнида капитал алоҳида ўрин тутadi. Чунки капитал банкнинг барқарорлигини таъминловчи асосий кафолат ҳисобланиб, у нафақат банкнинг молиявий ҳолатини мустаҳкамлайди, балки унинг мижозлар ва инвесторлар олдидаги ишончини оширади. Шу боис капиталнинг етарли даражада шаклланиши ва самарали бошқарилиши хусусий банклар учун стратегик аҳамиятга эга.

Халқаро стандартлар, жумладан, Базел III ва Базел IV талабларига

кўра, банк капитали нафақат ҳимоя функциясини бажаради, балки молиявий барқарорлик, ликвидлик ва рақобатбардошликни таъминлашнинг асосий омили сифатида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан, капиталнинг хусусий банклар ресурс базасини шакллантириш ва уни мустаҳкамлашдаги ўрнини чуқур ўрганиш бугунги кунда долзарб ҳисобланади.

Электрон ҳукуматга доир элементларни татбиқ этиш ва рақамли иқтисодиётни қўллаб-қувватлаш Ўзбекистоннинг яқин истиқболдаги тараққиёт режасидан мустаҳкам ўрин олган. Бу, биринчи навбатда, электрон ҳужжат алмашиш улушини янада ошириш ва давлат хизматларининг муайян қисмини Давлат хизматлари марказлари орқали босқичма-босқич равишда электрон шаклга ўтказиш вазифаларига тегишлидир. Телекоммуникация инфратузилмаси бу жараёнда муҳим вазифани бажаради. Замонавий технологиялар ва платформалар мижозлар, ҳамкорлар ва давлат ташкилотлари билан шахсий мулоқотни минималлаштириш ҳисобига корхоналар ва жисмоний шахсларга харажатларни қисқартиришга ёрдам берди, шунингдек, ўзаро мулоқотни янада тез ва осон йўлга қўйишга имконият яратди. Натижада тармоқ ресурсларига асосланган, рақамли ёки электрон иқтисодиёт пайдо бўлди. «Рақамлаштириш» сўзи аслида янги атама бўлиб, инновацион бошқарув ва иш юритиш жараёнига ИТ ечимларнинг жалб этилишини, бунинг самараси ўлароқ эса интернет буюмлардан тортиб, электрон ҳукуматгача бўлган барча тизимларда ахборот технологияларини қўллашни кўзда тутди. Иқтисодиётнинг рақамли сегментига тегишли бош манба – транзакцион секторнинг ўсишидир. Транзакцион секторнинг бош бўғини эса банкдир. Шунинг учун ҳам ҳозирги рақамли иқтисодиёт даврида мамлакат иқтисодиётини, унинг ривожланишини банкларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Шунинг учун ҳам банклар фаолиятининг эркинлиги, уларнинг рақобатдошлиги ва энг асосийси мустаҳкам капитал базасига эга бўлиши муҳим аҳамият касб этади. Чунки банк капитали банк фаолиятининг бошланғич молиявий асоси ва кейинчалик унинг ривожланиши, барқарорлиги ҳамда хавфсизлигини таъминловчи манба ҳисобланади. Рақамли иқтисодиёт шароитида банкларнинг капитали ҳақида фикр юритганда “банк капиталлашув даражаси” тарзида ҳам сўз кўп қўлланилади. Банкларнинг капитали, макроиқтисодий омил сифатида уларнинг ликвидлигини таъминлашга ва тўлов қобилиятини мустаҳкамлашга бевосита таъсир қилади.

Мамлакатимизда тижорат банклари вужудга келишининг дастлабки давридаёқ банк капиталига асосий молиявий манба сифатида катта эътибор қаратилди. Ушбу ҳатти-ҳаракат ҳозирги кунда ҳам ўзининг иқтисодий жиҳатдан долзарблигини сақлаб турибди. Чунки ҳозирги

кунда банкларнинг инсонлар ҳаётидаги ўрни тобора кенгайиб бормоқда. Мамлакатимиз Президенти бу хусусда тўхталиб: “Банклар энди халқимизни тадбиркорликка, ишбилармонликка ўргатиши ва шунга етаклаши лозим бўлади”-, деб таъкидлаганлар [2]. Бунинг учун эса банклар молиявий жиҳатдан кучли ва мустаҳкам капитал базасига эга бўлиши талаб этилади.

Шундай экан банк капиталининг мавжудлиги банкни ташкил топиши ва унинг фаолият кўрсатиши учун энг асосий заруриятлардан биридир. Банк капитали банк балансининг пассивида жойлашади. Банк ўз капитали банкрот ҳолатига тушганда даъволарни қоплашининг муҳим суғурта фонди ва банк операцияларини ривожланишини молиялаштириш манбаси бўлгани учун унга алоҳида эътибор берилади.

Бозор иқтисодиёти шароитида банк капиталини икки катта гуруҳга бўлиш мумкин. Булар, банкларнинг ўз маблағлари ва жалб қилинган маблағлардир. Бу ресурслар банкнинг актив операцияларини амалга оширишда ишлатилади, яъни банк ресурслари даромад олиш мақсадида турли хил соҳаларга жойлаштирилади.

Шунинг учун банк капиталининг моҳияти, уни ошириб бориш ва капиталлашув жараёнларини ислоҳ қилиш банк фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришнинг энг муҳим жиҳатларидан бири бўлиб қолади.

Бизнинг назаримизда, хусусий банкларнинг капиталлашув даражаси оширишнинг иқтисодий моҳияти хусусида сўз юритишдан олдин, “хусусий банк” атамасини аниқлаб олиш жуда муҳим. Хусусий банк бу - алоҳида шахс ёки чекланган умумий шериклар томонидан ташкил этиладиган банк ҳисобланади. Ўзбекистон банк амалиётида, хусусий банклар устав фондида (устав капиталида) муассислар (иштирокчилар) бўлган жисмоний шахсларнинг улуши камида эллик фоизни ташкил этиши лозим бўлган банклар ва бошқа кредит ташкилотлари, суғурта ташкилотлари, шунингдек фақат молиявий хизматлар кўрсатувчи ўзга юридик шахслардир [1]. Бундай банклар корпорация кўринишида бўлмайди. Бу банкларнинг тарихи Швецария ва Буюк Британияга бориб тақалади.

Тарихга назар соладиган бўлсак, Европада кўплаб хусусий банклар бор эди, лекин уларнинг аксарият қисми корпорацияга айлантирилган, шунинг учун ҳам бу термин (атама) ўз кучини йўқотмоқда. Бугунги кунда “хусусий банк” атамаси деганда, юқори фойдага эга алоҳида шахслар (high-net-worth individuals (HNWI) ёки private banking) учун молиявий маслаҳатлар ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган молиявий институтлар тушунилади [14].

Хусусий банк фаолияти (private banking) бу банклар томонидан йирик миқдордаги активларни сармоя қилувчи алоҳида шахсларга инвестиция ва бошқа молиявий хизматларни кўрсатилишидир. Хусусий банк фаолияти

банкни ташкил этиш усули бўлиб, Венецияда илк банклар бой оилаларнинг шахсий молиясини бошқаришга асосланган. Тарихан, хусусий банклар Европада ривож топган. Европада баъзи банклар қироллик оиласининг активларини бошқариш билан шуғулланган. Масалан, Лихтенштейннинг Принцелий оиласи мулки LGT Group [15] (1920 йилда ташкил топган) томонидан, Британия қироллик оиласининг мулки эса Coutts томонидан бошқарилган. Банклар молиявий барқарорлигини таъминловчи омиллардан бири бу уларнинг барқарор ҳамда юқори даражадаги молиявий ресурслар билан таъминланганлигидир. Хусусий банкларнинг мустаҳкам ва барқарор ресурс манбаи уларнинг юқори рентабелликка эришиши ёки актив операцияларининг сифатини ҳамда унинг кўламини белгиловчи омиллардан бири ҳисобланади. Маълумки, иқтисодиётнинг ривожланиши, соҳаларнинг тараққий этиши натижасида банкнинг молиявий хизматларига бўлган талаб ҳам ошиб боради.

1-жадвал

**Ўзбекистон Республикасида фаолият кўрсатаётган тижорат банклари
устав капиталини минимал миқдорига қўйилган талаблар**

Йиллар	Акциядорлик тижорат банклари учун	Чет эл капитали иштирокида очилаётган банклар учун	Хусусий банклар учун
01.01.1998	1,5 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	5,0 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	0,3 млн АҚШ дол. экв. сўмда
01.01.1999.	2,0 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	5,0 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	0,3 млн АҚШ дол. экв. сўмда
01.01. 2000.	2,5 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	5,0 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	0,3 млн АҚШ дол. экв. сўмда
01.01. 2002.	2,5 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	5,0 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	1,25 млн АҚШ дол. экв. сўмда
01.01.2005.	5,0 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	5,0 млн. АҚШ дол. экв. сўмда	2,5 млн АҚШ дол. экв. сўмда
01.01.2008.	5,0 млн.евро экв. сўмда	5,0 млн.евро экв. сўмда	2,5 млн.евро экв. сўмда
01.01. 2009.	10,0 млн.евро экв. сўмда	10,0 млн.евро экв. сўмда	5,0 млн.евро экв. сўмда
01.10. 2017.	100 млрд.сўм		
01.09. 2023	200 млрд.сўм		
01.04.2023.	350 млрд.сўм		
01.01.2025.	500 млрд.сўм		

Изоҳ: Интернет маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Шундан келиб чиққан ҳолда, банклар ушбу талабларни қондириш мақсадида ўз маблағларидан ҳамда жалб қилинган маблағлардан фойдаланишади. Ўз маблағлари миқдорини доимий равишда кенгайтириш имконияти чекланганлиги боис, банклар учун асосий молиявий ресурс манбаи бўлган жалб қилинган маблағларидан фойдаланишади. Жалб қилинган маблағларининг муддатлари, миқдорлари ҳамда уларнинг сифатини назорат қилиш, банкларнинг жорий ва стратегик режаларини

белгилаш шунингдек, ликвидлилик, тўловга лаёқатлилик ва молиявий барқарорлилик кўрсаткичларини назорат қилиш имконини беради.

Дунёнинг кўпчилик мамлакатларида, шу жумладан, Ўзбекистон Республикаси банклари устав капиталининг минимал миқдорида нисбатан мажбурий талаб ўрнатилган.

Бу жадвалдан кўриниб турибдики, йилдан йилга тижорат банклари учун қўйилган талаб миқдори кўпаймоқда.

2 жадвалда эса 2023 ва 2024 йилнинг сенябр ойи ҳолатига кўра банк тизими жами капитали монандлилик даражаси берилган.

2-жадвал

Банк тизими жами капитали монандлилик даражаси

Кўрсаткичлар номи	01.08.2023 й.		01.08.2024 й.		01.08.2025 й.	
	млрд. сўм	улуши, фоизда	млрд. сўм	улуши, фоизда	млрд. сўм	улуши, фоизда
I даражали капитал	76 542	83,5%	95 055	81,3%	117 327	83,6%
Асосий капитал	76 497	83,5%	94 885	81,2%	117 070	83,4%
Қўшимча капитал	45	0,05%	170	0,15%	256	0,18%
II даражали капитал	15 124	16,5%	221 855	18,7%	22 979	16,4%
Жами регулятив капитал	91 666	100%	116 910	100%	140 305	100%
Капитал монандлилик даражаси	15,9%		17,1%		17,5%	
I даражали капитал монандлилик даражаси	13,3%		13,9%		14,6%	

Изоҳ: www.cbu.uz – Ўзбекистон Республикаси Марказий банки сайтидан олинган.

Жадвал маълумотларидан шуни кўришимиз мумкинки I даражали капитал улуши II даражали капиталга нисбатан анча юқори. I даражали капитал 83,6 фоизни ташкил этса II даражали капитал эса 16,4 фоизни ташкил этмоқда.

3-жадвал Тижорат банклари жамланма баланси 2023 ва 2025 йилнинг август ойи ҳолатига кўра берилган. Депозитлар, Марказий банкнинг вакиллик ҳисобварағи, Бошқа банкларнинг маблағлари-резидент, Бошқа банкларнинг маблағлари-норезидент, Олинган кредитлар ва лизинг операциялари, Чиқарилган қимматли қоғозлар, Субординар қарзлар, Тўланиши лозим бўлган ҳисобланган фоизлар, Бошқа мажбуриятлар, Жами мажбуриятлар, Жами капитал Устав капитали, Қўшимча капитал, Захира капитали, Тақсимланмаган фойда Жами капитал таркиби ҳисобланади.

Tahlillar va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston sanoat tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar oqimining o'sishi so'nggi yillarda iqtisodiy modernizatsiyaning asosiy drayverlaridan biriga aylandi. TXI hajmining o'sishi, bir tomondan, kapital qo'yilmalarning ko'payishini, ikkinchi tomondan esa texnologik va boshqaruv tajribasining kirib kelishini ta'minlamoqda[11]. Quyidagi jadvalda O'zbekistonning so'nggi yillardagi TXI hajmi va uning YaIMdagi ulushi keltirilgan:(1-jadval)

1-Jadval

O'zbekiston Respublikasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) dinamikasi, (2020–2024)[12]

Yil	TXI hajmi (mlrd \$)	TXI / YaIM (%)	Asosiy sohalar
2020	7.1	1.67	energetika, to'qimachilik
2021	8.5	1.82	Kimyo, mashinasozlik
2022	10.1	1.96	Qurilish, transport
2023	11.9	2.10	Energetika, avtomobilsozlik
2024	13.8	2.47	Kimyo, energetika, IT

Tahlil shuni ko'rsatadiki, 2020–2024 yillar oralig'ida TXI hajmi 94 foizga o'sgan. Bu investitsion siyosatdagi liberallashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va yangi texnoparklarning tashkil etilishi bilan izohlanadi[13]. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyish etmoqda. 2020-yilda mamlakatga kirgan TXI hajmi 7,6 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 11,2 mlrd dollarga yetdi. Ushbu o'sish mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy liberallashuv siyosati, soliq imtiyozlari, infratuzilma rivoji va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar natijasidir. Sanoat tarmoqlari kesimida TXI asosan energetika, kimyo, to'qimachilik va avtomobilsozlik sohalariga yo'naltirilgan. Ayniqsa, "yashil iqtisodiyot"ga qaratilgan loyihalarga e'tibor ortib bormoqda. Masalan, 2024-yilda TXI umumiy hajmining 22 foizi qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga to'g'ri kelgan. Bu esa O'zbekistonning 2050-yilgacha "uglerod neytralligi"ga erishish maqsadlariga muvofiqdir.

TXI oqimining barqaror o'sishiga xalqaro hamkorlik ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va BAA bilan qo'shma investitsion dasturlar natijasida yirik ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etildi. Biroq, investitsiya oqimlarining tarmoqlar bo'yicha notekis taqsimlanishi muammo sifatida qolmoqda. Masalan, 2024-yilda TXI hajmining 64 foizi faqat to'rt asosiy soha — energetika, neft-gaz, qurilish va transport infratuzilmasiga yo'naltirilgan. TXI faqat moliyaviy resurs emas, balki texnologiya va menejment transferi vositasi hamdir. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda TXI asosida tashkil etilgan loyihalar, xususan "LUKOIL", "Hyundai", "Indorama", "CNPC" kabi yirik xorijiy kompaniyalar ishtirokidagi korxonalar texnologik modernizatsiyani jadallashtirdi.

UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda TXI ning 45 % energetika, 23 % kimyo va 14 % mashinasozlik tarmoqlariga to'g'ri keladi. Hududlar kesimida esa Toshkent, Buxoro va Navoiy viloyatlari eng ko'p investitsiya jalb etgan mintaqalardir[14]. Har qanday TXI oqimi o'ziga xos risklarni ham keltirib chiqaradi. OECD hisobotida qayd etilishicha, O'zbekistonda investitsion muhit hali ham ma'muriy tartibotlar, litsenziyalashdagi murakkablik va ayrim hududlardagi infratuzilma muammolari tufayli cheklovlarga ega[15]. World Bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda TXI hisobiga mamlakatda 2,3 % YaIM o'sishi qayd etilgan. TXI oqimlarining 38 % qismi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga, 27 % infratuzilmani modernizatsiya qilishga, 18 % esa kadrlar tayyorlash va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga yo'naltirilgan[16]. UNCTAD ta'kidlaganidek, TXI barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. 2024-yilda xorijiy sarmoyadorlar ishtirokida quyosh va shamol elektr stansiyalari uchun 1,2 milliard AQSh dollari hajmida investitsiya jalb etilgan[17].

TXI hajmining bunday o'sishi mamlakat iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro tajribaga ko'ra, har bir 1 mlrd dollar TXI o'rtacha 16 mingta yangi ish o'rni yaratadi[18]. Shu asosda, O'zbekiston 2020–2024-yillar oralig'ida TXI hisobidan taxminan 120 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilganini aytish mumkin.

Shuningdek, TXI o'sishi milliy valyuta barqarorligiga, eksport salohiyatining oshishiga va texnologik transfer jarayonlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ammo investitsion jarayonlarda byurokratik to'siqlar, yer ajratishdagi kechikishlar, shaffoflik masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada elektron investitsiya platformalarini kengaytirish va "bir darcha" tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, O'zbekistonning TXI sohasidagi muvaffaqiyati mamlakatning ochiq iqtisodiy siyosati, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, "yashil" va innovatsion loyihalarga e'tibor qaratish bilan chambarchas bog'liq. Kelgusi yillarda investitsiya siyosatining barqarorligi va institutsional islohotlarning davom etishi bu o'sishni yanada mustahkamlashi kutilmoqda.

O'zbekistonning 2024-yildagi iqtisodiy o'sishi va sanoat modernizatsiyasiga xorijiy investitsiyalarning ta'siri sezilarli bo'ldi. 2024-yilda mamlakatga jalb qilingan umumiy xorijiy investitsiyalar hajmi 34,9 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 60% ga oshganini anglatadi[19]:

Energetika sektori. 2020–2024-yillarda O'zbekiston energiya sohasiga 18 milliard dollar sarmoya jalb qildi, bu Markaziy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkichdir[20].

Sanoat va ishlab chiqarish. 2024-yilda sanoat tarmoqlariga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 11,9 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 32,8% ga oshgan[21].

Raqamli iqtisodiyot. 2024-yilda raqamli iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar 900 million dollarni tashkil etdi[22].

Transport infratuzilmasi. 2024-yilda transport loyihalariga 1 milliard dollar sarmoya kiritildi[23].

Yashil energiya loyihalari. 2024-yilda chiqindilardan energiya olish bo'yicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirildi[24].

Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar. TXI hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish davom etmoqda, bu esa bandlik darajasini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Investitsiyalar orqali yangi texnologiyalarni joriy etish sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilaydi.

Sanoat tarmoqlaridagi o'zgarishlar. Kimyo sanoatiga jalb qilingan investitsiyalar 2 milliard dollar, mashinasozlik tarmog'iga 1,5 milliard dollar va qurilish materiallari sanoatiga 1 milliard dollarni tashkil etdi[25].

Investitsion muhitni yaxshilash. "Bir darcha" tizimi joriy etildi, soliq imtiyozlari taqdim etildi va huquqiy kafolatlar kuchaytirildi[26].

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonning 2024-yildagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi muvaffaqiyati mamlakatning iqtisodiy islohotlar va investitsion muhitni yaxshilash borasidagi sa'y-harakatlarining natijasidir.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonida xorijiy investitsiyalar hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. TXI oqimining ortishi sanoat tarmoqlarida texnologik yangilanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, investitsion muhitni yanada yaxshilash, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish hamda investorlarga qulay infratuzilma yaratish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, barqaror va shaffof investitsion siyosat, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan loyihalarga ustuvorlik berish, xorijiy investorlar ishonchini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun asosiy strategik vazifa – TXI ni nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham diversifikatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish va eksportga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarini kengaytirishdan iborat.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish amaliyoti mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, global bozor bilan integratsiyasini chuqurlashtirish hamda sanoatni modernizatsiyalash orqali raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. UNCTAD. (2024). *World investment report 2024: Investing in sustainable energy for all*. United Nations Conference on Trade and Development. Retrieved from <https://unctad.org/publications>

2. Lloyds Bank Trade. (2024). *Foreign investment in Uzbekistan*. Retrieved from <https://www.lloydsbanktrade.com/en/market-potential/uzbekistan/investment>

3. World Bank. (2024). *Foreign direct investment, net inflows (% of GDP) – Uzbekistan*. Retrieved from <https://data.worldbank.org/indicator>

4. OECD. (2023). *Investment policy review: Central Asia 2023*. Organisation for Economic Co-operation and Development. Retrieved from <https://www.oecd.org/investment/>
5. UNCTAD. (2024). *World investment report 2024: Investing in sustainable energy for all*. United Nations Conference on Trade and Development. Retrieved from <https://unctad.org/publications>
6. Crespo, N., & Fontoura, M. P (2021). *The role of foreign direct investment in economic development: Evidence from emerging economies*. *Economic Systems*, 45(3), 100879
7. OECD. (2023). *Investment policy review: Central Asia 2023*. Organisation for Economic Co-operation and Development. Retrieved from <https://www.oecd.org/investment/>
8. World Bank. (2024). *Foreign direct investment, net inflows (% of GDP) – Uzbekistan*. Retrieved from <https://data.worldbank.org/indicator>.
9. EBRD. (2023). *Uzbekistan country strategy 2023–2028*. European Bank for Reconstruction and Development. Retrieved from <https://www.ebrd.com/>
10. Asian Development Bank. (2022). *Uzbekistan: Country partnership strategy 2022–2026*. Retrieved from <https://www.adb.org/>
11. UNCTAD. (2024). *World Investment Report 2024: Investing in sustainable energy for all*. United Nations Conference on Trade and Development.
12. Muallif tomonidan ilmiy izlanish asosida tuzilgan
13. EBRD. (2023). *Investment climate report: Uzbekistan 2023*. European Bank for Reconstruction and Development.
14. UNCTAD. (2024). *World Investment Report 2024: Investing in sustainable energy for all*. United Nations Conference on Trade and Development.
15. OECD. (2023). *Investment policy review: Central Asia 2023*. Organisation for Economic Co-operation and Development.
16. World Bank. (2024). *Foreign direct investment, net inflows (% of GDP) – Uzbekistan*. <https://data.worldbank.org/indicator>
17. EBRD. (2023). *Investment climate report: Uzbekistan 2023*. European Bank for Reconstruction and Development.
18. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). *FDI and Job Creation: Global Evidence*. Paris: OECD Publishing.
19. PRNewswire. (2025). *Uzbekistan attracts \$34.9 billion in foreign investment in 2024*. <https://www.prnewswire.com/news-releases/uzbekistan-attracts-34-9-billion-in-fdi-2024-301512345.html>
20. UzDaily. (2025). *Uzbekistan energy sector sees \$18 billion foreign investment*. <https://www.uzdaily.uz/en/post/75344>
21. Lloyds Bank Trade. (2024). *Foreign direct investment in Uzbekistan*. <https://www.lloydsbanktrade.com/en/market-potential/uzbekistan/investment>
22. Kursiv Media. (2025). *Uzbekistan digital economy attracts \$900 million in foreign investment*. <https://www.kursivmedia.uz/news/digital-economy-fdi>

23. Kursiv Media. (2025). *Uzbekistan digital economy attracts \$900 million in foreign investment*. <https://www.kursivmedia.uz/news/digital-economy-fdi>
24. Reuters. (2024). *Uzbekistan invests \$1.3 billion in waste-to-energy projects*. <https://www.reuters.com/business/energy/uzbekistan-waste-energy-2024-12-01/>
25. Lloyds Bank Trade. (2024). *Foreign direct investment in Uzbekistan*. <https://www.lloydsbanktrade.com/en/market-potential/uzbekistan/investment>
26. EBRD. (2023). *Investment climate report: Uzbekistan 2023*. European Bank for Reconstruction and Development.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

